

**PRIMA RUBOBINING VUJUDGA KELISHI VA UNING TA'LIM TARBIYADAGI
AHAMIYATI**

Xudoyberdiyev Dilmurod Ro'zimurodovich

Buxoro Davlat Pedagogika Instituti

"Musiqa ta'limi va san'at" yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Prima rubobining vujudga kelishiga oid bo'lgan ishlar, mohir ustozlar va ularning qilgan ishlari, prima rubobining orkestrdagi o'rni va bu sozning asta sekin takomillashishi haqida so'z boradi.*

Аннотация: В данной статье рассказывается о событиях, связанных с появлением прима-рубоба, мастеров-учителей и их деятельности, месте прима-рубоба в оркестре и постепенном совершенствовании этого напева.

Annotation: This article talks about the events related to the emergence of the prima rubob, master teachers and their work, the place of the prima rubob in the orchestra and the gradual improvement of this tune

Kalit so'zlar: xromatik, labaratoriya, orkestr, kuy, sozanda, takomillashtirish, mutaxassis, rubob.

Musiqaning sirli dunyosiga kirgan odam, uning mislsiz ummon ekanligini anglashi muqarrardir. Bu ummon - moziydan sadolanishi, tarix davomida zamon va makon qonuniyatlari negizida shakllanishi, an'analar kamolotida qadr topishi va qadriyatlarga aylanishi, ijodiyot degan ilohiy ne'mat asosida, jonli ravishda rivojlanib borishi bilan xarakterlanadi. Har bir davr o'zining musiqiy an'analari bilan izohlanishining ham hikmati shundadir. Musiqaning samoviv yoki ilohiy ekanligi qadimiy manbalarda o'z aksini topgan. Insoniyat esa o'z ma'naviyati darajasida o'zining ma'naviy boyliklarini shakllantirib, davrlar osha rivojlantirib kelgan. Bu jarayonda har soha zamonlar evrilishida charxlanib, mukammallashib, yangidan-yangi ijodiy munosabatlar negizida boyib, o'z samarasini namoyon etib kelgan. Musiqa sohasining azaliy qadriyatlardan zamonaviylik mezonlariga bo'lgan jarayonlarni faqatgina ohanglarda muhrlangan betakror asarlardangina anglash mumkin. Buning esa ko'lami juda keng, ularni tasavvur ham qilish mushkul. Chunki, har bir xalqning o'z ma'naviyati, ma'rifati, estetikasi bo'lib, hayot degan jarayonda milliy hamda mahoratli omillar bilan sug'orilib kelingan. Buning negizida ikki ulkan tafakkur yo'nalishlari, ya'ni xalq ommaviy musiqasi va tafakkurning individual ijodiy munosabatlarining mahsuli o'rin olgan. Musiqa san'atining azaliy an'analari Sharq xalqlari madaniyatida shakllanib rivoj topganligi hamda butun bashariyatga ijodiy ta'sir etganligi, fanda o'z ijobatini topgan. Musiqa ko'plab asrlar davomida odamzotga hamroh bo'lib, uning mehnat faoliyatini, turmushini, his-tuyg'usi hamda kechinmalarini, o'y-fikrlarini va orzu-umidlarini aks ettirib kelgan. Insoniyat jamiyatining umumiy rivojlanishi hamda biron-bir xalqning

konkret tarixiy turmush sharoitiga muvofiq holda uning musiqasi o‘z kuyi rivojlangan. Xalqning musiqiy madaniyati rivojlanib, yuksalib borgani sari cholg‘u asboblari ham asta-sekin boyib borishi ma’lum: ayrim cholg‘u asboblari qayta ta’mirlanish tufayli asrlar davomida saqlanib kelgan va bizgacha tarixiy ko’rinishida qisman yetib kelgan bo’lsa, boshqalari davrning yuksak talablariga javoban qayta ta’mirlanib takomillashtirilgan.

Milliy cholg‘u asboblari, ayniqsa, XX asrning 20-30 yillarida jadal qaytadan takomillashtirilgan. Bu hodisa Respublikamizda ikki yo’nalishda yuz berdi. Bir yo’nalishni xalq cholg‘u asboblari ustalari amalga oshirgan. Ularning asosiy maqsadi, fikru-zikri cholg‘u asboblarining tovush sifatlarini yaxshilash va kuchaytirishga qaratilgan bo’lib, bunda tovushqator, shuningdek, pardalarning va torlarning joylashuvi, ladlarning bo’g’malari singari ayrim odatiy konstruktiv ishlarga qaratilgan edi. Ikkinci yo’nalish – milliy cholg‘u asboblarini “xromatik temperatsiya” yo’lidan takomillashtirish, “orkestr oilalarini yaratish” bo’yish ish olib boorish bo’lgan edi. Ustalarning tajriba labaratoriya andozalari bo'yicha fabrikada tayyorlangan takomillashtirilgan cholg‘u asboblaridan respublikamizda ham, undan tashqarida ham professional musiqa o’quv yurtlarida, maxsus o’quv yurtlarda, badiiy havaskorlik jamoalarida ham amalda foydalanildi. Takomillashtirilgan o’zbek milliy cholg‘u asboblarida yakka va jamoa ijrochiligidagi ular bilan bir qatorda T. Jalilov nomidagi Davlat akademik xalq cholg‘u orkestri, Davlat teleradiosi qoshidagi D. Zokirov nomidagi xalq orkestri, “So’g’diyona” Davlat xalq cholg‘ulari kamer orkestri va boshqalar ham nom qozongan. Musiqa o’quv yurtlari ham malakali yakkaxon ijrochilarini, ansambl va orkestrlar artistlarini, musiqa jamoalarini rahbarlarini ikki yo’nalishda: o’zbek milliy cholg‘u asboblarida og’zaki an’anadagi kuylar ijrochilarini va yozma an’anadagi kuy ijrochilarini tayyorlab, O’zbekiston Respublikasi an’anaviy cholg‘u san’atini rivojlantirishga katta hissa qo’shib kelishmoqda. Milliy cholg‘u asboblaridagi ushbu ijrochilik san’ati asrlar davomida rivojlanib, bir sozanda ya’ni ijrochidan boshqasiga og’zaki o’tib, bizgacha yetib kelgan. Milliy cholg‘u asboblarida ijrochilik san’atini rivojlanishi bilan barobar cholg‘u asboblarini yasash san’ati ham rivojlanib, ustozdan shogirdga o’tib kelgan. Milliy cholg‘u asboblarining klassik shakllari qaror topishiga aynan ijrochilik san’ati ta’sir ko’rsatgan. Hayot taraqqiyoti jarayonlarida, G‘arb madaniyatining o’ziga xos kamol topganligini esa, hozirgi zamon musiqa san’ati ko’lamidan ilg‘ab olish mushkul emas. Buning negizida musiqa san’ati va uning ichki unsurlarini professionallik darajada umumlashish bosqichlarini o’tashi, bu jarayonda mutanosib tovush pardalarini uyg‘unlashtirish hamda barcha barobar qabul qilishlari kabi mezonlar, umumbashariyat musiqa san’atining go’zal uyg‘unlashishiga olib kelganligini e’tirof etish lozimdir. Har bir xalq o’zining milliy musiqa san’ati bilan birgalikda, ular asoslangan g‘arbona musiqa ijodiyotini shakllantirdilar. Buni, ilk bosqichlarini taqlidiy munosabat ekanligiga ham shubha yo‘q. Lekin zamon va makon, mafkura va siyosat, qolaversa, zamonaviy ijodiy munosabatlar yangi yo’nalishlarni

vujudga kelishini ta'minlab beradi. O'zbek xalq musiqa san'ati o'zining milliy jarayonlarida o'ziga xos va mukammal darajada shakllangan betakror xalq va mumtoz musiqa merosiga ega. XX asrga kelib, bu ijtimoiy hayot so'qmoqlarida va musiqa madaniyatimizda yangi yo'naliш joriy etila boshlandi. Bu ana shu g'arb musiqa madaniyatining negizida musiqa ijodiyotini kamol toptirish edi. Qayd etish joizki, har qanday musiqa xalq madaniyatining rivojiga xizmat qilsa, albatta amaliyotda o'z ijobatini topadi. XX asrga kelib O'zbekistonda ham yevropacha tafakkur oqimining ta'siri sezila boshlandi va zamonaviy musiqaning kompozitorlik ijodiyoti ko'rinishida amaliyotda qaror topa boshlandi. Hozirgi kunda prima rubobi cholg'usi o'zbek xalq cholg'ularining orasida o'z o'rнiga, o'z ovoziga, o'z tembriga ega bo'lib, yetakchi cholg'ulardan biriga aylanib ulgurdi. Prima rubobi cholg'usi o'tgan asrning ikkinchi yarmida qashqar rubobining andozasi asosida yangi yaratilgan bo'lib, Hamza nomidagi san'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti qoshidagi tajriba labaratoriyasida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, professor A. I Petrosyans rahbarligida takomillashtirilgan ruboblar oilasini yaratishnatijasida yuzaga kelgan cholg'u. Prima rubobi cholg'usi bo'yicha bugungi kunda barcha musiqa va san'at maktablari, litsey va kollejlarida hamda oliy ta'lim dargohlarida mutaxassislar tayyorlanib kelinmoqda. Hozirgi davrda prima rubobi cholg'usi bo'yicha yetuk sozandalar, mutaxassislar, uslubiyotchilar yetishib chiqayapti. Bularidan Sharipov Nig'matjon, Ziyoyev Shuxrat, Dadamuhamedov Asqar, Otaxonjayev Muhiddin, Xo'jayev Odinamurod, Yusupov Abdurashid, Samadov Oybek, Tursunova Nazira, Saidov Farhod, To'rayev Alisher, Gochbakarov Azat, Shodiyev Shuxrat va viloyat musiqa va san'at maktablarida faoliyat olib borayotgan ustozlarni ta'kidlab o'tishimiz mumkin. Prima rubobi cholg'usi bo'yicha respublikamizda o'tkazilib kelinayotgan ko'plab tanlov va festivallarda ijrochi sozandalar, tanlov g'oliblari yetishib chiqqan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. А. И. Петросянц. Инструментоведение. Ташкент. 1980
2. А. Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent 1993
3. А. Odilov. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi. Toshkent 1995
4. О. Akbarov. Prima rubobi darslik. Toshkent 2003